



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2024

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлоқ
хужалиғини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайжон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети


Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далам педагогика институти

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети


1. Жаҳонгирбек Жонқобилов СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДА СУҒОРИШ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ.....	4
2. Обиджан Мадаминов ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАР ТИЗИМИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.....	10
3. Акмал Менглибоев СУРХОН ВОҲАСИДА 1921-1922 ЙИЛЛАРДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИНИНГ КУЧАЙИШИ.....	15
4. Baxtiyor Nazirov XOTIN-QIZLAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI VA MAVJUD MUAMMOLAR.....	22
5. Mukhiddinjon Primov O‘ZBEKISTONDA KARTOGRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI.....	28
6. Asror Raximov QARSHI CHO‘LI TARIXIGA NAZAR.....	35
7. Kamoliddin Toshov IKKINCHI JAHON URUSH YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI AHOLISINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN MUNOSIB HISSASI.....	42
8. Sanjarbek Shoyimov SOVET-AFG‘ON URUSHIDA O‘ZBEKISTONNING ISHTIROKI VA URUSHNING U UCHUN SALBIY OQIBATLARI.....	49
9. Ikrom Xudayberdiyev DYURAND CHEGARA CHIZIG‘IGA AFG‘ONISTON VA POKISTONNING MUNOSABATI.....	57
10. Иззат Юсупов МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА “ЎЗБЕКИСТОН ПОЧТАСИ” БУХОРО САМАРҚАНД ВА НАВОИЙ ФИЛИАЛЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	63
11. Шерзоджон Чориев АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР ТАРИХИЙ МАТЕРИАЛЛАР.....	69
12. Мардон Хасанов ХОРАЗМДАГИ ИСЛОМДАН ОЛДИНГИ ДИНИЙ ҚАРАШЛАР (ХРИСТИАНЛИК МИСОЛИДА).....	76



Sanjarbek Saidmurod o'g'li Shoyimov,
Toshkent moliya instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası
o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

SOVET-AFG'ON URUSHIDA O'ZBEKISTONNING ISHTIROKI VA URUSHNING U UCHUN SALBIY OQIBATLARI

For citation: Sanjarbek S. Shoyimov. PARTICIPATION OF UZBEKISTAN IN THE SOVIET-AFGAN WAR AND NEGATIVE CONSEQUENCES OF THE WAR FOR IT. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 1, pp.49-56

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10614763>

ANNOTATSIYA

Jahon tarixining uzviy qismi sanalgan XX asrning 70-80-yillari sovet-afg'on urushi bilan xarakterlanadi. Ushbu maqolada urushning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini bilan bir qatorda O'zbekiston SSR uchun urushning talafot va jabr-zulmlari manbalar orqali keltirilgan. Shuningdek, maqolada urush qatnashchilarining urush haqidagi xotiralari va esdaliklari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ADR, SSSR, Aprel revolyutsiyasi, M. Taraqqiy, Xayraton, TurkVO, R. Pardayev, MusBAT, H. Amin, 1989 yil 15-fevral, Tojbeq saroyi

Санжарбек сын Саидмурада Шойимов
Ташкентский финансовый институт
Кафедра «Общественные науки».
преподаватель, независимый исследователь

УЧАСТИЕ УЗБЕКИСТАНА В СОВЕТСКО-АФГАНСКОЙ ВОЙНЕ И НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ВОЙНЫ ДЛЯ НЕГО

АННОТАЦИЯ

70-е и 80-е годы XX века, являющиеся неотъемлемой частью мировой истории, характеризуются советско-афганской войной. В данной статье наряду с причинами и последствиями войны через источники представлены потери и страдания войны для Узбекской ССР. В статье также приведены воспоминания ветеранов войны и воспоминания о войне.

Ключевые слова: АDR, СССР, Апрельская революция, М. Таракки, Хайратон, ТуркВО, Р. Пардаев, МусБАТ, Х. Амин, 15 февраля 1989 г., Тожбекский дворец.

Sanjarbek S. Shoyimov,
Tashkent Financial Institute
Department of "Social Sciences".
teacher, independent researcher

PARTICIPATION OF UZBEKISTAN IN THE SOVIET-AFGAN WAR AND NEGATIVE CONSEQUENCES OF THE WAR FOR IT

ABSTRACT

The 70s and 80s of the 20th century, which are an integral part of world history, are characterized by the Soviet-Afghan war. In this article, along with the causes and consequences of the war, the losses and sufferings of the war for the Uzbek SSR are presented through sources. The article also contains war veterans' memories and reminiscences about the war.

Index Terms: ADR, USSR, April Revolution, M. Taraqqi, Khayraton, TurkVO, R. Pardayev, MusBAT, H. Amin, February 15, 1989, Tojbek Palace

Millatni asrash kerak, uni asrash uchun haqiqiy
Tarixini o'rganish va avaylab himoyalash kerak
Islom Karimov

1. Dolzarbligi:

Sovuq urush davrida “ikki buyuk” davlatning Afg'onistondagi o'zgarishlarga o'z ta'sirlarini o'tkazishga harakat qilishlari asosida SSSR hukumatining Afg'onistonda davlat to'ntarishi tayyorlashdagi ishtiroki hamda u yerga bostirib kirishining sabab va shart-sharoitlari, uning bu bosqinchilik harakatini SSSR ning Afg'onistonga “baynalmilalchilik harakati” deb izohlashi kabi sovet davri tarixida yoritilgan mafkuraviy, asossiz fikr va ilmiy qarashlarni bugungi mustaqil O'zbekistonda hozirgi kun nuqtai nazari bilan xolisona tahlil etish, o'rganish, isbotlash hamda uni tarix fanida aks ettirish masalasi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ushbu urushda O'zbekistonning ishtiroki natijasida minglab o'zbek yigitlarining jangga safarbar etilishi, ushbu janglarda ularning qahramonlik ko'rsatishi, urushning o'zbek oilalariga ko'rsatgan mudhish oqibatlari, urush ishtirokchilarining urushdan keyingi taqdiri, jamiyatga moslashuvdagi qiyinchiliklar, ta'sirli urush xotiralari bilan bog'liq azoblanishlar va ularning urushda ko'rsatgan qahramonliklari uchun munosib taqdirlanmaganliklarini yoritish hamda uni davr nuqtai nazaridan tahlil etish ishlar amalga oshirilmaganligi dissertatsiya mavzusining naqadar dolzarbligini asoslaydi.

2. Metodlar va mavzuning o'rganilish darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda 1978-1989 yillar misolida Sovet-afg'on urushi va uning O'zbekiston uchun salbiy oqibatlari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada oral tarix asosida yozilgan manbalardan ham foydalanilgan.

O'zbekistonda sovet-afg'on urushida O'zbekiston SSR ishtiroki mavzusiga oid tadqiqotlarni o'rganilish mintaqasiga qarab 2 turga bo'lib o'rganish muvofiq bo'ladi. Birinchisi - rus va boshqa chet el tarixchilari tomonidan nashr etilgan adabiyotlar; ikkinchisi mahalliy o'zbek tarixchi olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Dastlab, 1990-yillar va 2000 yillar boshida rus va boshqa millat tarixchilari tomonidan mavzuga doir tadqiqotlarni ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, Sergey Opalev, Коргун В.Г [11] А. Alexiev[12] , Knyazev[13] А.А. Юрий Рубцов[14] В. Топорков М. [15], Афанасьев А.А[16], Белоусов. И.И[17], Tsagolov К.М. [18], . Гареев М.А[19]. Громов Б.В[20], Марчук Н.И.[21], Польшин М.Ф. [22], Antonio Anton Minkov and Gregory Smolynek[23], Artem Borovik[24], Kalinovskiy, Artemy M.[25], Giustozzi [26], Endurs Wimbush S. [27] Godson, Larry P. [28], Sallie Wise[29], Breytveyt Rodrig [30], Kokar, M. Hasan [31], Bohdan Nahaylo [32], Zou Jiayi [33], va boshqalar o'z tadqiqotlarida sovet-afg'on urushining kelib chiqish sabablari, SSSR ning Afg'onistonga nisbatan yuritgan tashqi siyosati, urushda O'rta Osiyo Respublikalarining roli, Musulmon batalyonlarining urushda ko'rsatgan qahramonliklari, shuningdek, urush ishtirokchilari tomonidan yozib olingan esdaliklarni o'rganishgan.

Ikkinchinchidan, mahalliy tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan mavzuga oid ishlar unchalik ko'p bo'lmas-da, jumladan, R.Pardayev [34] , K.Bahriyev[35] , Q.Rajabov [36], A.Xaydarov, R.Rashidov [37] va boshqa tadqiqotchilar sovet-afg'on urushida O'zbekistonning

ishtiroki va uning o'zbek xalqi uchun mudhish oqibatlari, yo'qotishlari haqida o'z asarlarida yozishgan.

Shuningdek, ushbu mavzu bo'yicha O'.Abdirahimov [38], N.Xoshimov [39], A.Iskandar [40] kabi yozuvchilar urushda bevosita ishtirok etgan o'zbek jangchilari tilidan og'zaki tarix asosida voqeyi-tarixiy roman, xotira esselarini yaratishgan. Ularda urush manzarasi, sovet-afg'on urushining sabablari, asosiy urush tasvirlari, o'zbek jangchilarining urushdagi qahramonliklar hamda mashaqqatli xizmatlari aks ettirilgan.

Shuningdek, mavzuni yoritishda o'sha davrda nashr etilgan markaziy gazetalar – “Sovet O'zbekistoni” hamda “Pravda Vostoka” gazetalarining o'sha davrda nashr bo'lgan sonlaridagi ma'lumotlardan foydalanilgan.

3.Tadqiqot natijalari:

Ma'lumki, XX asrning 60-70 yillarida jahonda yuz bergan siyosiy voqealarida SSSR hamda AQShning bevosita ishtirokining mavjudligi, sovuq urush davrida rivojlanayotgan davlatlarning aynan shu ikki davlat aralashuvining ta'siri ostida sotsialistik yoki demokratik tuzumni o'ziga g'oyaviy rahnamo qilib olish odatga aylangan edi[1].

1977-yilga kelib, mamlakatda inqilobiy vaziyat yuzaga kelganligi bois ikkala tarmoq yana yagona AXDPga birlashdi. 1978-yil 27-28 - aprelda (1357-yil 7-Savr musulmon yillari) Afg'onistonda aprel inqilobi bo'lib o'tdi, natijada podpolkovnik Abdul Qodir boshchiligidagi bir guruh harbiylar Prezident Dovudni ag'darib, hokimiyatni Inqilobiy Kengashga topshirdi. N.M. Taraqqiy SSSR bilan, Hafizulloh Amin esa AQSh bilan yaqin aloqalar o'rnatish tarafdori edi. Uning Amin bilan munosabatlari uning hukmronligi davrida yomonlashdi, natijada 1979-yil 14-sentyabrda N.M.Taraqqiy taxtdan ag'darildi. Hafizulloh Amin hukumatni qo'lga olar ekan, SSSR rahbariyati bilan do'stona aloqada bo'lishini bildiradi. 1979 yil sentabr oyidan dekabr oyigacha Amin SSSR hukumatidan bir necha bor harbiy yordam so'ragan. Ikkinchi tarafdin, u AQSh bilan hamkorlik qilish haqida yashirincha muzokara o'tkaza boshlagan.

Shunday sharoitda Afg'onistonning o'z strategik maqsadlari doirasidan chiqib ketishini istamagan SSSR avantyuraga qo'l urdi. 1979-yil 26-dekabrda 27 dekabrda o'tar kechasi Davlat xavfsizlik komitetining maxsus bo'linmasi jangchilari (ular asosan musulmonlardan iborat edi) Kobuldagi Tojbek saroyini ishg'ol etib, Afg'oniston prezidenti Xafiz Aminni o'ldirishdi hamda hokimiyat tepasiga sovetparast Babrak Karmalni o'tqazishdi. Dastlabki sovet desanti Farg'ona shahridan uchgan harbiy samalyotlar qo'shinlari Termiz orqali zudlik bilan Afg'onistonga kiritildi. Mana shunday sharoitda “sho'roviy afg'on” hukumatini qo'llab kelayotgan SSSR qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi dunyodagi barcha taraqqiyparvar kuchlar tomonidan keskin qoralandi. Hatto, O'zbekistonning o'shada davrdagi birinchi siyosiy rahbari bo'lgan Sh.Rashidov sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi va u yerdagi harbiy mojarolarga aralashishiga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Biroq, Oradan bir kun o'tib SSSR Mudofaa vaziri D.Ustinov «Do'st afg'on xalqiga yordam berish maqsadida mamlakat janubidagi Sovet harbiylarining bir qismini qo'shni davlat hududiga kiritishga qaror qilindi», deb yozilgan direktivani imzoladi.

Sovetlarning mustaqil xalqaro huquqning teng huquqli subyeksi bo'lgan Afg'onistonga ochiqdan-ochiq avantyurasi sovet arboblarning siyosiy jihatdan yo'l qo'ygan “qo'pol” xatosi bo'ldi. 10 yil davom etgan urush natijasida SSSR harbiy xarajatlari yanada oshib, iqtisodiy inqiroz holatiga kelgandi. Nafaqat, Butun mamlakat iqtisodiy yo'qotishni boshidan kechirishi bilan birga, qanchalab urushda insonlar halok bo'ldi. Afg'onistonda turgan “cheklangan sovet qo'shinlari” miqdori hech qachon 100.000 kishidan pastga tushmagan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, 500.000 nafar sovet soldat va ofitserlari Afg'onistondagi harbiy harakatlarda “jangovar tayyorgarlik” dan o'tgan. Ittifoq ichidagi respublikalar aholisi orasidan minglab yosh yigitlar urushga chaqirilib, safarbar etildi.

Afg'onistonda bo'lgan janglarda 14 500 kishidan ortiq sovet soldati halok bo'ldi.

Bu urushning azob-u mashaqqatidan jafokash o'zbek xalqi ham chetda qolmadi. Xususan, O'zbekiston SSR urushda ham harbiy kuch tomonidan balki iqtisodiy tomondan ham urushga o'z hissasini qo'shdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1979 yildan 1989 yilga qadar Afg'onistonda bo'lib o'tgan harbiy harakatlarda 65 ming nafarga yaqin o'zbekistonliklar ishtirok etishgan(1067 nafar

o'zbek yigiti janglarda o'ldirildi). Ulardan 1515 nafar halok bo'lganlari o'zbekistonlik jangchilar edi. 30.000 nafardan ortiq kishi og'ir yaralandi yoki uyiga nogiron bo'lib qaytdi[2].

Jumladan, Sovetlar kuchi bilan tashkil etilgan Afg'oniston Demokratik Respublikasi (ushbu nomga nisbatan ko'pincha ADR iborasi qo'llaniladi) ga ham harbiy yuklar, ham oziq-ovqatlar ortilgan yuk mashinalari Xayraton (do'stlik) ko'prigi orqali ADR aholisiga yetkazib berilardi.

Jumladan, O'zbekistonga ADR hukumatidan 1980 yilning o'zida 2 marta rasmiy delegatsiya Toshkentga tashrif buyurgan. Shu yilning fevral oyi boshlarida Afg'oniston Demokratik Respublikasi jamoatchiligi vakillarining Sovet Ittifoqiga kelgan katta bir gruppasi – san'at xodimlari, yozuvchilar va shoirlar, jurnalistlar, din arboblari Toshkentda mehmon bo'lib turibdi.

Afg'onistonlik mehmonlar V.I.Lenin Markaziy muzeyining Toshkent filialini, respublika Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasini borib ko'rdilar, O'zbekiston poytaxtining diqqatga sazovor joylariniko'zdan kechirdilar, chet mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy aloqa O'zbekiston jamiyatining aktivlari bilan uchrashdilar. Qo'shni mamlakatning madaniy arboblari O'zbekiston SSR Davlat san'at muzeyida va Amaliy san'at muzeyida bo'ldilar[3]. Afg'oniston Demokratik Respublikasi savdo ministri M.X.Jalolar boshchiligidagi Afg'oniston savdo xodimlarining Sovet Ittifoqiga kelgan delegatsiyasi Farg'ona oblastining hayoti bilan tanishishdi.

Ministr va uning xamrohlari Quva rayonida bo'lib, savdo tashkilotlari ishi tajribasi bilan tanishdilar, rayon markazida savdo kompleksini va boshqa joylarni borib ko'rdilar[4]. Savdo ministri X.A.Jalolar boshchiligidagi Afg'oniston Demokratik Respublikasi savdo xodimlari delegatsiyasi O'zbekiston bo'ylab safarini tugatdi.

5-fevralda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisining birinchi o'rinbosari T.N.Osertrov delegatsiyani qabul qildi.

X.M.Jalolar O'zbekistonda bo'lgan vaqtda olgan taassurotlari haqida gapirib, bunday deydi:

- O'zbekistonda aholiga savdo xizmati ko'rsatish tajribasi bilan tanishishdan ko'p narsa o'rgandi. Bizni qishloq joylarda savdo-sotiq va umumiy ovqatlanishni tashkil etish, matlubot kooperatsiyasining axolidan ortiqcha dehqonchilik mahsulotlarini xarid etish, tayyor mahsulot chiqarish borasidagi ishlari qiziqirdi. Sovet Ittifoqida, jumladan, O'zbekistonda ko'rganlarimizning hammasi Afg'oniston Xalq Demokratik partiyasi xalqning farovonligini oshirish borasida Afg'oniston savdo xodimlari oldiga qo'ygan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda ularga yordam beradi, degan umiddamiz, deb ta'kidlagan edi.

O'zbekistonning ADR ga gumanitar yuklar hamda harbiy yordamlarni yetkazib berishda Xayraton ko'prigi (post) nihoyatda muhim hisoblanardi. 1981-1985-yillarda Afg'onistonda xizmatda bo'lgan mayor Turulov Anatoliy Anatoliyevich "Mavjud Hayraton ko'prigi Afg'onistonga iste'mol tovarlari olib kelinishi uchun qurilganini bilaman. Shuningdek, temir yo'l qurildi, yo'l qurildi, gaz quvuri yotqizildi (gap Afg'onistonga yoqilg'i etkazib beriladigan ikkita kichik quvur haqida ketmoqda). Ushbu quvurlar butun motorli manevrlar guruhi tomonidan qo'riqlangan. Men o'zim vaqti-vaqti bilan tunda gaz quvuridagi (neft quvuri) sabotajni bartaraf etish uchun uchib turardim, deb eslaydi. O'zbekistonni Afg'oniston bilan bog'lovchi Termiz – Hayraton temir yo'l-avtomobil ko'prigining uzunligi 816 metr bo'lib, 1981 yilda qurilgan. U dastlab 1888 yilda yog'ochdan, 1902 yilda temirdan qurilishi boshlangan ko'priki o'rnida barpo etilgan. 1990 yillarda "Do'stlik" ko'prigi nomi Termiz – Hayraton nomiga o'zgartirildi[5].

10 yil mobaynida ham iqtisodiy jihatdan, ham gumanitar tomondan kata yo'qotishlarga uchragan sovet hukumati 1988 yil fevralida M.Gorbachyov Afg'onistondan sovet qo'shinlari chiqarilishini e'lon qildi. 1989 yil 15 fevralda so'nggi sovet askari Afg'onistonni tark etdi. Ma'lumotlarga ko'ra, SSSR har yili Afg'onistondagi qo'shin uchun 1 mlrd rubl sarflagan. Sovet armiyasi 15 ming kishiga yaqin qurbon bergan, 35 ming kishi yarador bo'lgan[6]. 10 yil mobaynida ular bir milliondan ortiqroq afg'onni o'ldirdilar, 3 million odamni mamlakatdan qochishga majbur qildilar, ammo, baribir, orzu qilgan g'alabalariga erisha olmadilar. Allaqancha ofitser bilan askar dushman qo'lida asirlikda, lekin asirlarning aniq sonini hech kim bilmaydi[7].

Quyida sovet-afg'on urushi va unda o'zbek askarlarining ishtiroki haqida urushda ishtirok etganlardan eshilib yozib olingan maktublardan parchalar keltirilgan.

Urushda qatnashgan leytenant **Abdullayev Rashid Igamberdiyevich** “Ikkita aerodromdan uchdik: Tuzeldan IL 76, Chirchiqdan AN 12. Jumladan, mening kompaniyam uchun 7 ta IL 76 samolyoti, ekipaj va qo‘shinlar bilan birga har tomondan ikkitadan avtomashina (BMP) ajratildi. Men 4-bortning eng kattasi edim. IL 76 og‘ir texnika uchun, AN 12 esa engil uskunalar uchun ishlatilgan. Masalan, AGS kompaniyasi Chirchiqdan uchib ketdi. Ularga AN 12-o‘rin berildi. Birinchi kechada Kubinkadan IL 76 polki, Farg‘onadan IL 76 polki keldi. Menimcha, 50 ta IL-76 va 30 ta AN 12 samolyotlari bor edi. Har bir samolyot ikkitadan parvoz qilgan. Ikkinchi reysda o‘q-dorilar, yoqilg‘i-moylash materiallari, oziq-ovqat va boshqa moddiy-xo‘jalik mulklari tashildi. Bagramdagi shaharcha tayyor edi. Biz chodirlarda yashardik, deb urush haqida eslab o‘tadi.

Afg‘onistonda 1984-1988-yillarda harbiy tarjimon bo‘lib ishlagan **Gulyamov Shuxrat Asamiddinovich** urush haqida shunday eslaydi: “DRA (ADRning rus tilidagi tarjimasi) ga mendan tashqari fakultetimizdan yana 17 kishi chaqirildi. Kobulda bizni afg‘on armiyasi bo‘linmalari o‘rtasida taqsimlashdi. Do‘stim bilan men rasmiy ravishda Kobulda joylashgan, lekin aslida Panjshirda bo‘lgan 444-komando brigadasiga kirdik. Brigada 6 ta batalyondan iborat bo‘lib, 4 ta qishloqda joylashgan edi. 1-batalyon Peshgor qishlog‘ida, 3-batalyon Taxana yaqinida, shtab Barakida, 4-batalyon Bozorda. 25 dekabr kuni Panjshirga yetib keldik. Faqat ikki kun o‘tdi va men birinchi marta operatsiyaga bordim. Kechqurun 3-batalyon komandirining maslahatchisi qo‘zg‘olonchilar qurshovida qolgani, jang ketayotgani haqida radioeshittirishdi. O‘sha paytda biz bilan general-leytenant Gipkov edi, u brigada komandiriga 3-batalonga yordam berish uchun 20 kishini yuborishni buyurdi. Ular meni o‘z safiga qo‘shib, lifchiqa olishimni aytishdi. Bu men uchun tushunarsiz edi. Men bu narsadan hayratda qoldim, toki sutyen tushirish deb atalganini tushundim. Brigada komandirining maslahatchisi Moskalev, men va yigirmalab afg‘on askarlari zirhli transportyorga o‘tirib, jo‘nab ketdik. Jang joyiga 10 kilometr qoldi. Tun edi”.

“Voenkamatdagilar meni TurkVOda xizmat qilish uchun qoldirishadi, generalni chaykada olib yuraman, deyishdi. Armiyaga qadar kolxozda yuk mashinasi haydovchisi bo‘lib ishlaganman, bir yarim yillik tajribam bor edi. Ular bizning hududdan yetti nafar tajribali haydovchini tanlab, “Chayka”ni haydashimizni aytishdi. Avval Ashxobodga olib kelishdi, ikki-uch kundan keyin Termizga jo‘natishdi. Biz poligonda, o‘n kishilik chodirlarda yashardik. Bu juda issiq edi - 60 (70) darajagacha. Afg‘onistondan serjantlar bizga dars berish uchun kelganida, biz DRAGA tushishimizni bildik. Bungacha bizda Afg‘oniston va uning aholisi haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q edi. Bizga, internatsionalist askarlar, aprel inqilobini himoya qilish uchun u yerga taklif qilinganimizni aytishdi. Biz afg‘on xalqiga yordam berishimiz va janubiy chegaralarimizni himoya qilishimiz (qo‘riqlashimiz) kerak. Biz tezlashtirilgan dastur bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazdik, bu qiyin edi. Bu yerda azob chekishdan ko‘ra tezroq Afg‘onistonga jo‘natishimizni ham aytdik. Afg‘onistonga kelganimda kompaniyada 30 kishi bor edi. Ular orasida Germaniya, Rossiya va Boltiqbo‘yi davlatlarida xizmat qilgan yigitlar ham bor edi. Ular o‘z texnikalari bilan Afg‘onistonga jo‘natilgan. Ular allaqachon xizmat qilishgan, buning uchun buyurtma bor edi. Ular bizni ko‘rib, xursandchilikdan shapkalarini havoga ko‘tara boshlashdi. Ertasi kuni demobilizatorlar o‘z texnikalarini bizga topshirib, Sovet Ittifoqiga jo‘nab ketishdi,” deb urushni xotirlaydi, oddiy askar, haydovchi-mexanik **Kambarov Kamaledin Mamasharipovich**.

Urushda komandir-serjant darajasida 1985-1986-yillarda xizmat qilgan **Mamajanov Dilshodbek Tavakoljonovich** “Yo‘qotishlarimiz og‘ir edi. Bitta operatsiya davomida kompaniyamizdagi 47 kishidan 19 nafari tirik qolgan, qolganlari halok bo‘lgan va yaralangan. Hammasi bo‘lib polkdan 100 ga yaqin odam halok bo‘ldi. Bu 1985 yil 5 yoki 17 may kunlari Kijoya xochida edi. Operatsiya bir guruh afg‘on zobitlarini ozod qilish (qutqarish) edi. Afg‘onistonda 9 polkovnik bo‘lgan vertolyot urib tushirildi. Biz ularga yordam berish uchun bordik, bu butun armiyani qamrab olgan operatsiya edi. U yerda diviziya komandiri (108-MSD komandiri) general-mayor Isaev bor edi. Asosan barcha javonlar u erda edi. Dastlab urush uzoqda bo‘lgan. Ammo ular bizga juda yaqin bo‘lishimizga imkon berishdi va biz havo kuchlarini chaqirishga majbur bo‘ldik. Bizning yonimizdagi samolyot (juda yaqin) bomba tashladi. Dushman ataylab bizni ichkariga kiritdi, rejalangan edi, hammasi aralashdi. Bu qo‘rqinchli edi, deb urush xotiralarini esga oladi[8].

“Mahalliy aholi bizga juda yaxshi munosabatda bo‘lishdi. Ular (afg‘onlar) o‘shanda ikki

tuzum – kapitalizm va sotsializm o‘rtasida kurash borligini bilmas edilar. Mahalliy aholida faqat bitta mafkura – Qur‘on bor edi. Qur‘on suralarini bilganlar o‘zlariniki sifatida qabul qilingan. Xristianlar yoki ruslarga nisbatan hech qanday dushmanlik yo‘q edi, ammo Afg‘onistonda o‘sha paytda xalqaro terrorchilarning kirib kelishi uchun haqiqiy sharoitlar tayyor edi. Ular Pokiston va Erondagi ko‘plab lagerlarda tayyorgarlikdan o‘tgan. Bu terrorchi guruhlar har qanday yo‘l bilan Afg‘oniston hududini egallab olmoqchi bo‘lgan. Ularni davlatni kim boshqarayotgani qiziqitirmadi, mahalliy aholining turmush sharoiti qiziqitirmadi. Ular AQSh, Angliya va Germaniya razvedka xizmatlari tomonidan nazorat qilingan edi” deb urush sabablarini eslab xotirlaydi urush kapitani, boshliq o‘rinbosari **Pardaev Rafi Pardaevich** [9].

Urushda ishtirok etib, ko‘rgan-kechirganlarini “Afg‘on to‘la fig‘onim” xotira kitob qilib yozgan **Abdug‘afur Iskandar** “Afg‘onda xizmat qilgan askarlar orasida bir ish urf edi. To‘qson to‘qqiz foiz yigitlar chap ko‘kragiga tikanli sim o‘rab turgan Avtomat o‘qining rasmini uydinib chizdirar edi. Buni “nakolka” deyishadi. Ilmiy tilda “tatirovka” deb aytiladi. Tepasida “ДРА” (Демократическая республика Афганистан) degan yozuv, pastida esa, qon guruhi bitilgan bo‘ladi. Bu narsa bir tomondan kerak ham. Chunki, xudo saqlasin, yaralanib qolgudek bo‘lsa, qon tahliliga vaqt ajratib o‘tirishmaydi. Ammo, o‘sha 99% ning ichida men yo‘qman”, deb o‘z kitobida yozadi[10]. Umuman, bu kabi urush qatnashchilarining ko‘plab esdaliklari kitob va memuarlarda saqlanib qolgan. Bugungi vaziyat ana shu haqiqatni haqqoniy, ro‘yi-rost ko‘rsatib berishdan iboratdir.

4.Xulosalar:

Xulosa sifatida aytish o‘rinliki, Sovet-afg‘on urushi Jahon hamda O‘zbekiston tarixida sezilarli iz qoldirib ulgurgan. Dunyoda o‘tgan asrning 70-80- yillarida avj olgan “sovuq urush” ning eng cho‘qqisi ushbu urush bilan izohlash mumkindir. Ushbu urushning ahamiyati SSSR va Afg‘on xalqlari uchun juda ayanchli oqibatlariga olib kelganligini unutmazlik lozim. Urushning Sovet davlati uchun oqibati shunda bo‘ldiki, busiz ham yemirilib borayotgan bu “zulm imperiyasi” ining halokatini yanada tezlashtirib, oxir-oqibat parchalanishiga olib kelgan bo‘lsa, Afg‘on xalqi uchun bo‘lsa, bugungi kungacha yechimini topmayotgan fuqarolar urushini keltirib chiqardi. Bu urushning insoniyat uchun qanchalik mudhish oqibatlariga olib kelishidan dalolatdir. Jumladan, urushning O‘zbek xalqi xotirasidan ham “bexosiyat” o‘rin olganligi va uning zahm-zahmatlari unutilib bo‘lmaydi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘tkir Abdirahimov. Taqdir o‘yinlari. Paradigma, T.: 2017. B.107.
2. Q.Rajabov, Husan Abuyev. O‘zbekiston SSR da Sovet davlatining yemirilishi hamda qayta qurish siyosatining tanazzuli (1985-1991 y.) Fan, T.: 2022. B.17.
3. Afg‘onistonlik mehmonlar Toshkentda // Sovet O‘zbekiston, 17 oktabr, 1980 yil №249
4. Afg‘onistonlik mehmonlar// Sovet O‘zbekiston, 5-fevral, 1980 yil №29
5. <https://sputniknews.uz/20190125/zbekiston-Afonistonda-alok-blgan-zhangchilar-nomini-abadiylashtiradi-10635084.html>
6. Q.Rajabov, Husan Abuyev. O‘zbekiston SSR da Sovet davlatining yemirilishi hamda qayta qurish siyosatining tanazzuli (1985-1991 y.) Fan, T.: 2022. B.17.
7. Память из пламени Афганистана: Интервью с воинами–интернацио налистами Афганской войны 1979-1989 годов / Под ред. Марлен Ларюэль, Ботагоз Ракишевой, Гулден Ашкеновой. Книга 2. Узбекистан. Издание состоит из 3-х книг. – Астана: КИСИ при Президенте РК, 2016 г.
8. Игорь Бунич. Партиянинг олтинлари Тошкент «Маънавият» 2005. 313 б.
9. Память из пламени Афганистана: Интервью с воинами–интернацио налистами Афганской войны 1979-1989 годов. С. 104.
10. Abdug‘afur Iskandar. Afg‘on to‘la fig‘onim (xotira esse). Muharrir, T.: 2018.
11. Коргун В.Г. Афганистан и Иран. — Афганистан: война и проблемы мира, с. 76.
12. Alexiev A. ‘Inside the Soviet Army—Afghanistan’, Report No. 3627, The Rand Corporation,

- Santa Monica (1988).
13. Князев А.А. Постсоветские исследования. Т.6. № 3 (2023) 266 ПРОБЛЕМЫ РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ / REGIONAL SECURITY ISSUES Научная статья / Research article Афганская политика Узбекистана: сравнительный контекст
 14. СОВЕТСКИЙ СОЮЗ В «НЕОБЪЯВЛЕННОЙ» ВОЙНЕ В АФГАНИСТАНЕ (1979–1989): ОСМЫСЛЕНИЕ ПРОШЛОГО
 15. ТАЙНАЯ ДИПЛОМАТИЯ СССР В АФГАНИСТАНЕ 1978–79 ГГ ISSN 1998-4812 Вестник Башкирского университета. 2012. Т. 17. №2 1051
 16. Афанасьев А.А. Афганистан: почему это произошло. // Коммунист вооружённых сил. 1991. № 12
 17. К вопросу о принятии политических и военных решений при вводе советских войск в Афганистан. 26.10.2018 Ввод советских войск в Афганистан - Сайт Наука. Общество. Оборона
 18. Tsagolov K. M. 'Afghanistan-Predvaritel'nye Itogi', Ogonek, 30 (1988), p. 25.
 19. Гареев М. А. Афганская страда (с советскими войсками и без них). М., 1999
 20. Громов Б.В. Ограниченный контингент. Советские войска в Афганистане. –М.: Прогресс, 1994. – 351 с
 21. Марчук Н.И. Война в Афганистане: «интернационализм» в действии // Советская внешняя политика в годы «холодной войны». 1945–1985. – М.: Международные отношения, 1995. – С.453–459.
 22. Все было не так просто. Причины и мотивы ввода советских войск в Афганистан в 1979 году
 23. Anton Minkov and Gregory Smolyneec. Economic Development in Afghanistan During the Soviet Period, 1979–1989: Lessons Learned from the Soviet Experience in Afghanistan. Archived 2 July 2019 at the Wayback Machine DRDC Centre for Operational Research & Analysis, Canada. Page 4.
 24. Artem Borovik, 'Vstretimsya u trekh zhuravlei', Ogonek, 28–30 (1987).
 25. Kalinovsky, Artemy M. (2011). A Long Goodbye: The Soviet Withdrawal from Afghanistan. Harvard University Press. p. 42. ISBN 978-0-674-05866-8.
 26. Antonio Giustozzi. War, politics and society in Afghanistan, 1978–1992. Hurst, 2000.
 27. Endrus S.Wimbush and Alex Alexiev Soviet Central Asian Soldiers in Afghanistan. January 1981. N-1634/1 30 p.
 28. Goodson, Larry P. (2011). Afghanistan's Endless War: State Failure, Regional Politics, and the Rise of the Taliban. University of Washington Press. ISBN 978-0-295-80158-2. OCLC 1026403863
 29. Sallie Wise, 'A War Should Never Have Happened: Soviet Citizens Assess the War in Afghanistan', Radio Liberty Research, RL 226/88 (June 1, 1988), pp. 1–3.
 30. BRAITHWAITE Rodric, 2011, The Russians in Afghanistan 1979-1989, London: Profile Books.
 31. Kakar, M. Hassan (1997). Afghanistan: The Soviet Invasion and the Afghan Response, 1979–1982. Berkeley: University of California Press. ISBN 978-0-520-08591-6. OCLC 37175170. (free online access courtesy of UCP).
 32. Bohdan Nahaylo, 'When Ivan Comes Marching Home: The Domestic Impact of the War in Afghanistan', The American Spectator, 20 (1987), pp. 15–18.
 33. ZHOU Jiayi, 2012, "The Muslim Battalions: Soviet Central Asians in the Soviet-Afghan War," The Journal of Slavic Military Studies 25(3), pp. 302-328. DOI : 10.1080/13518046.2012.705567
 34. Пардаев Р. Афганская командировка (факты и воспоминания) – Ташкент. Мухаррир 2013. 720 стр.
 35. Bahriyev K. "Oy borib, omon qaytmagan bolam" // O'zbekiston adabiyoti va san'ati (Toshkent) 1990 yil.
 36. Rajabov Q. X. Abuyev. O'zbekiston SSRda Sovet davlatining yemirilishi hamda qayta qurish

- siyosatining tanazzuli (1985-1991y.) T.: Fan. 2022.
37. Rashidov R. Afgʻonistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. –T.: Navroʻz, 2017. – 263 b.
 38. Abdirahimov Oʻ. Taqdir oʻyinlari. Roman. T.: Paradigma. 2017. 439 b.
 39. Xoshimov N. Afgʻon figʻonlari. Voqeyiy-sarguzasht roman yoxud tilmoch Toʻrabek Samarqandiyning koʻrgan kechirganlari. Tafakkur. 2015. 288 b.
 40. Iskandar A. Afgʻon toʻla figʻonim. Xotira esse. Muharrir. T.: 2018. 80 b.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000